



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



## TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023 - yil 1 - iyun holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 94,0 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 82,5 mingta yetdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1 - iyun holatiga ko‘ra, birlikda*

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023 - yil yanvar - may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022 - yilning mos davri bilan solishtirilganda 572 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.



## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug‘bek tumani	961	8,6 %	Yakkasaroy tumani	632	7,7 %
Chilonzor tumani	838	7,3 %	Shayxontohur tumani	587	6,6 %
Yunusobod tumani	827	7,3 %	Uchtepa tumani	449	5,8 %
Yashnobod tumani	692	8,6 %	Sirg‘ali tumani	443	8,5 %
Olmazor tumani	690	7,6 %	Yangihayot tumani	314	13,0 %
Mirobod tumani	656	8,2 %	Bektemir tumani	170	6,8 %

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 94 014 tani tashkil etib, bunda sohalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar savdo – 30075 tani, sanoat – 11434 tani, qurilish – 6891 tani tashkil etadi.



## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	11 449
Yunusobod tumani	11 360
Mirzo Ulug'bek tumani	11 161
Olmazor tumani	9 024
Shayxontohur tumani	8 948
Yakkasaroy tumani	8 188


Yashnobod tumani	8 070
Mirobod tumani	7 974
Uchtepa tumani	7 748
Sirg'ali tumani	5 192
Bektemir tumani	2 493
Yangiyahoyot tumani	2 407

2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023 - yil yanvar - may oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 7050 tani tashkil qilmoqda.



## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	928	9,4 %	Yakkasaroy tumani	613	8,2 %
Chilonzor tumani	817	8,0 %	Shayxontohur tumani	571	7,3 %
Yunusobod tumani	802	8,0 %	Uchtepa tumani	436	6,1 %
Yashnobod tumani	682	9,4 %	Sirg'ali tumani	433	9,0 %
Olmazor tumani	668	8,1 %	Yangiheyot tumani	300	13,7 %
Mirobod tumani	634	9,0 %	Bektemir tumani	166	7,1 %

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023 - yil 1- iyun holatiga 84,3 mingtani tashkil etmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi: savdo – 35,6 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qurilish – 8,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,1 foizni tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida


Chilonzor tumani	10 201	Yashnobod tumani	7 270
Yunusobod tumani	10 061	Uchtepa tumani	7 117
Mirzo Ulug'bek tumani	9 861	Mirobod tumani	7 038
Olmazor tumani	8 202	Sirg'ali tumani	4 823
Shayxontohur tumani	7 828	Bektemir tumani	2 326
Yakkasaroy tumani	7 473	Yangihayot tumani	2 184

2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023 - yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022 - yilning mos davriga nisbatan 614 taga ko'paydi.



## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	922	9,6 %	Yakkasaroy tumani	604	8,3 %
Chilonzor tumani	816	8,2 %	Shayxontohur tumani	565	7,4 %
Yunusobod tumani	792	8,1 %	Uchtepa tumani	431	6,1 %
Yashnobod tumani	677	9,6 %	Sirg'ali tumani	430	9,1 %
Olmazor tumani	664	8,2 %	Yangihayot tumani	299	13,9 %
Mirobod tumani	625	9,2 %	Bektemir tumani	165	7,2 %

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Chilonzor tumani (12,1 foiz), Yunusobod tumani (11,9 foiz), Mirzo Ulug'bek tumani (11,7 foiz), Olmazor tumani (9,8 foiz) va Shayxontohur tumani (9,2 foiz) da faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	9 991	Yashnobod tumani	7 074
Yunusobod tumani	9 816	Uchtepa tumani	7 054
Mirzo Ulug'bek tumani	9 619	Mirobod tumani	6 816
Olmazor tumani	8 070	Sirg'ali tumani	4 717
Shayxontohur tumani	7 615	Bektemir tumani	2 291
Yakkasaroy tumani	7 295	Yangihayot tumani	2 144




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko‘ra, birlikda

### Tumanlar kesimida

Shayxontohur tumani	92
Mirzo Ulug‘bek tumani	89
Yunusobod tumani	74
Yashnobod tumani	61
Olmazor tumani	55
Yakkasaroy tumani	49
Chilonzor tumani	48
Sergeli tumani	45
Mirobod tumani	35
Uchtepa tumani	35
Bektemir tumani	34
Yangiheyot tumani	21




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda


**Tumanlar kesimida**

Olmazor tumani	1 408
Chilonzor tumani	1 326
Uchtepa tumani	1 251
Yunusobod tumani	1 112
Yashnobod tumani	1 038
Mirzo Ulug'bek r tumani	1 013
Shayxontohur tumani	941
Yakkasaroy tumani	894
Sirg'ali tumani	795
Mirobod tumani	654
Yangihayot tumani	522
Bektemir tumani	480



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,2 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,3 foizini ishlab chiqarish, 3,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish va 1,0 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashki etgan.



2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	901
Chilonzor tumani	828
Yunusobod tumani	827
Yashnobod tumani	744
Yakkasaroy tumani	720
Mirobod tumani	613
Shayxontohur tumani	517
Olmazor tumani	491
Uchtepa tumani	426
Sirg'ali tumani	423
Yangihayot tumani	227
Bektemir tumani	174



O'zbekistonda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, zero bugungi bunyodkorlik — ertangi farovonlik demakdir. Shu sababli qurilish sanoati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,9 foiz ulushni tashkil etdi.

677



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

2 885

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

3 329

Bino va  
inshootlar qurish



2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Chilonzor tumani	3 797
Olmazor tumani	3 386
Uchtepa tumani	3 230
Yunusobod tumani	3 154
Mirzo-Ulug'bek tumani	3 055
Shayxontohur tumani	2 782
Yashnobod tumani	2 671
Yakkasaroy tumani	2 252
Mirobod tumani	2 080
Sirg'ali tumani	1 919
Bektemir tumani	1 002
Yangihayot tumani	747



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,8 foizi yoki 29,6 mingtasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 43,3 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 49,0 foiz ulushni tashkil etadi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,7 foiz ulushni tashkil etadi.

2 310

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

14 751

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


13 014

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Tumanlar kesimida**

Yunusobod tumani	688
Chilonzor tumani	613
Yakkasaroy tumani	585
Mirzo Ulug'bek tumani	560
Mirobod tumani	511
Olmazor tumani	491
Shayxontohur tumani	473
Yashnobod tumani	448
Uchtepa tumani	374
Sirg'ali tumani	243
Bektemir tumani	120
Yangihayot tumani	90



2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 73,6 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 13,9 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,1 foiz ulushini tashkil etdi.

724

Yashash bo'yicha xizmatlar



4 472


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida


Mirzo Ulug'bek tumani	791
Yunusobod tumani	647
Mirobod tumani	542
Chilonzor tumani	515
Yakkasaroy tumani	473
Shayxontohur tumani	459
Yashnobod tumani	328
Olmazor tumani	304
Uchtepa tumani	189
Sirg'ali tumani	134
Yangihayot tumani	53
Bektemir tumani	40



2023 - yil 1 – iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 25,9 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 11,2 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 62,9 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 143,1 foizni tashkil etdi.



2023 - yil 1 - iyun holatiga koʻra, birlikda

**Tumanlar kesimida**

Yunusobod tumani	<b>321</b>
Mirzo Ulugʻbek tumani	<b>275</b>
Chilonzor tumani	<b>247</b>
Olmazor tumani	<b>236</b>
Shayxontohur tumani	<b>193</b>
Yashnobod tumani	<b>166</b>
Uchtepa tumani	<b>164</b>
Mirobod tumani	<b>122</b>
Yakkasaroy tumani	<b>109</b>
Sirgʻali tumani	<b>88</b>
Yangihayot tumani	<b>56</b>
Bektemir tumani	<b>28</b>



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 767 ta yoki 88,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

96,5 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri keldi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etdi;

Yashash uchun  
joy bilan  
taʼminlanmagan  
holda ijtimoiy  
xizmatlar koʻrsatish

**37**

Yashash uchun joy  
bilan taʼminlangan  
holda parvarishlash

**34**


Sogʻliqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat

**1934**

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Tumanlar kesimida

Chilonzor tumani	459
Mirobod tumani	443
Mirzo Ulug'bek tumani	431
Yunusobod tumani	421
Yakkasaroy tumani	402
Yashnobod tumani	352
Olmazor tumani	315
Shayxontohur tumani	304
Sirg'ali tumani	243
Uchtepa tumani	240
Bektemir tumani	118
Yangihayot tumani	80



2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 4,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

— quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 46,4 foizni tashkil etdi;

— ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati yo'nalishining jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 43,5 foizni tashkil etdi;

— pochta va kuryerlik faoliyati yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi esa jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 46,4 foizni tashkil etdi; 8,9 foizni tashkil etdi;

— havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni jami tashish va saqlash xizmatlari sohasidagi ulushi 1,2 foizni tashkil etdi.






### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek tumani	<b>887</b>	<b>10,2 %</b>	Yakkasaroy tumani	<b>587</b>	<b>8,7 %</b>
Yunusobod tumani	<b>758</b>	<b>8,7 %</b>	Shayxontohur tumani	<b>524</b>	<b>8,0 %</b>
Chilonzor tumani	<b>754</b>	<b>8,7 %</b>	Uchtepa tumani	<b>400</b>	<b>7,2 %</b>
Yashnobod tumani	<b>637</b>	<b>10,0 %</b>	Sirg'ali tumani	<b>396</b>	<b>9,5 %</b>
Olmazor tumani	<b>623</b>	<b>9,6 %</b>	Yangihayot tumani	<b>268</b>	<b>14,5 %</b>
Mirobod tumani	<b>602</b>	<b>9,3 %</b>	Bektemir tumani	<b>159</b>	<b>8,3 %</b>

2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 84,3 mingta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 72,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

### Hududlar kesimida


Yunusobod tumani	8 744	Yashnobod tumani	6 307
Chilonzor tumani	8 686	Mirobod tumani	6 271
Mirzo Ulug'bek tumani	8 702	Uchtepa tumani	5 585
Yakkasaroy tumani	6 746	Sirg'ali tumani	4 158
Olmazor tumani	6 721	Bektemir tumani	1 907
Shayxontohur tumani	6 535	Yangihayot tumani	1 844

2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	50	4,4 %	Yashnobod tumani	21	3,3 %
Mirzo Ulug'bek tumani	30	3,7 %	Sirg'ali tumani	19	4,1 %
Shayxontohur tumani	29	3,4 %	Mirobod tumani	17	3,4 %
Uchtepa tumani	25	2,2 %	Yakkasaroy tumani	16	3,1 %
Olmazor tumani	24	2,3 %	Yangihayot tumani	11	5,9 %
Yunusobod tumani	23	2,7 %	Bektemir tumani	3	1,0 %

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 8,4 mingtani tashkil qiladi.


## Hududlar kesimida

Chilonzor tumani	1 148	Yashnobod tumani	627
Uchtepa tumani	1 135	Yakkasaroy tumani	512
Olmazor tumani	1 051	Mirobod tumani	500
Yunusobod tumani	862	Sirg'ali tumani	465
Shayxontohur tumani	849	Bektemir tumani	302
Mirzo Ulug'bek tumani	809	Yangihayot tumani	187


2023 - yil yanvar-may oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Yashnobod tumani	24	8,9 %	Mirobod tumani	15	10,3 %
Yangihayot tumani	21	14,4 %	Chilonzor tumani	13	5,1 %
Olmazor tumani	20	5,5 %	Uchtepa tumani	11	3,0 %
Yunusobod tumani	19	5,7 %	Mirzo Ulug'bek tumani	10	4,6 %
Shayxontohur tumani	17	4,9 %	Yakkasaroy tumani	8	5,1 %
Sirg'ali tumani	16	9,1 %	Bektemir tumani	4	4,2 %

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra 2022 - yilning mos davriga nisbatan 756 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida


Olmazor tumani	366	Mirzo Ulug'bek tumani	219
Uchtepa tumani	366	Sirg'ali tumani	176
Shayxontohur tumani	344	Yakkasaroy tumani	158
Yunusobod tumani	336	Mirobod tumani	146
Yashnobod tumani	269	Yangihayot tumani	146
Chilonzor tumani	255	Bektemir tumani	96

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida


Mirobod tumani	176	12,2 %	Shayxontohur tumani	53	9,3 %
Mirzo Ulug‘bek tumani	154	13,3 %	Sirg‘ali tumani	52	15,0 %
Yakkasaroy tumani	120	9,8 %	Olmazor tumani	38	9,4 %
Yunusobod tumani	100	10,1 %	Bektemir tumani	23	12,2 %
Chilonzor tumani	84	11,1 %	Yangihayot tumani	20	14,5 %
Yashnobod tumani	81	11,2 %	Uchtepa tumani	13	5,6 %




2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,0 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 2 021 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 13,1 foiz), Xitoy (ulushi 10,9 foiz), Qozog'iston (ulushi 9,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.


## Hududlar kesimida

Mirobod tumani	1 445	Shayxontohur tumani	570
Yakkasaroy tumani	1 219	Olmazor tumani	406
Mirzo Ulug'bek tumani	1 162	Sirg'ali tumani	347
Yunusobod tumani	986	Uchtepa tumani	234
Chilonzor tumani	759	Bektemir tumani	188
Yashnobod tumani	722	Yangihayot tumani	138

*2023 - yil yanvar - may oylarida, birlikda*

Toshkent shahrining o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2 614 tasi qo'shma korxonalar, 5 562 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

1 065	Mirobod	380
886	Yakkasaroy	333
808	Mirzo Ulug'bek	354
666	Yunusobod	320
507	Chilonzor	252
471	Yashnobod	251
359	Shayhontohur	211
232	Sirg'ali	115
228	Olmazor	178
154	Uchtepa	80
105	Bektemir	83
81	Yangihayot	57

2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Toshkent shahar statistika boshqarmasining [www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz) rasmiy saytidan (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkin.



Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71 203 88 31